


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 16 169,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>13 841,7</b>	<b>16 169,3</b>	<b>107,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 401,2	15 679,8	107,1
mahsulotlarga sof soliqlar	440,5	489,5	105,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>13 401,2</b>	<b>15 679,8</b>	<b>107,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 367,2</b>	<b>5 875,9</b>	<b>103,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 513,7</b>	<b>4 126,5</b>	<b>108,9</b>
sanoat	2 696,5	3 176,6	108,3
qurilish	817,2	949,9	110,8
<b>xizmatlar</b>	<b>4 520,3</b>	<b>5 677,4</b>	<b>110,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	954,8	1 325,3	129,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	470,6	588,0	114,1
boshqa xizmat tarmoqlari	3 094,9	3 764,1	103,7



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 675,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>40,0</b>	<b>37,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,2</b>	<b>26,4</b>
sanoat	20,1	20,3
qurilish	6,1	6,1
<b>xizmatlar</b>	<b>33,8</b>	<b>36,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	8,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,7
boshqa xizmat tarmoqlari	23,2	23,9




2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 37,5 % ni, sanoat tarmog‘i 20,3 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 36,1 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,5 %), sanoatda – 108,3 % (20,3 %), qurilishda – 110,8 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 110,1 % ni (36,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 129,0 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,1 % va sanoat – 108,8 % qayd etildi..

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 10 710,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 9 237,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 68,3 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 68,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko‘payishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

9 237,5

68,9 %

2024- yil

10 710,8

68,3 %

